# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI



2022- yil yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajm 4 210,0 mlrd. so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,3 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 3 954,2 mlrd. so‘mni (103,1 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklari 197,4 mlrd. so‘mni (102,3 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 58,5 mlrd. so‘mni (126,6 %) tashkil qildi.

Xususan, yuqori o‘sish sur’atlari Chinoz (110,7 %), Bo‘stonliq (103,7 %), Toshkent (103,7 %), Parkent (103?6 %), Yuqori Chirchiq (103,6 %) va Quyi Chirchiq (103,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Qibray (100,7 %), Bekobod (100,8 %) va Yangiyo‘l (101,1 %) tumanlarida nisbatan past o‘sish sur’atlari bilan yakunlandi.

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda hududlarning ulushi**

| | *2022- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m* | *O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da* | *Umumiy hajmda hududlarning ulushi, %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **4173,6** | **103,2** | **100,0** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 28,4 | 102,6 | 0,7 |
| Olmaliq | 15,1 | 102,8 | 0,4 |
| Angren | 46,3 | 102,5 | 1,1 |
| Bekobod | 40,2 | 102,4 | 1,0 |
| Ohangaron | 10,4 | 103,3 | 0,2 |
| Chirchiq | 32,7 | 102,0 | 0,8 |
| Yangiyo‘l | 5,1 | 102,9 | 0,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 242,1 | 103,4 | 5,8 |
| Ohangaron | 209,3 | 103,3 | 5,0 |
| Bekobod | 285,3 | 100,8 | 6,8 |
| Bo‘stonliq | 294,3 | 103,7 | 7,1 |
| Bo‘ka | 244,4 | 103,4 | 5,9 |
| Quyi Chirchiq | 199,0 | 103,6 | 4,8 |
| Zangiota | 439,3 | 102,6 | 10,5 |
| Yuqori Chirchiq | 228,5 | 103,6 | 5,5 |
| Qibray | 309,7 | 100,7 | 7,4 |
| Parkent | 204,3 | 103,6 | 4,9 |
| Piskent | 172,8 | 103,5 | 4,1 |
| O‘rta Chirchiq | 320,9 | 103,5 | 7,7 |
| Chinoz | 264,5 | 110,7 | 6,3 |
| Yangiyo‘l | 320,6 | 101,1 | 7,7 |
| Toshkent | 260,3 | 103,7 | 6,2 |

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi**

| | *2022- yil yanvar-mart, mlrd. so‘m* | *O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da* | *Umumiy hajmda kichik biznes ulushi, %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **3917,5** | **103,5** | **93,3** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 28,4 | 102,6 | 100,0 |
| Olmaliq | 15,1 | 106,8 | 99,9 |
| Angren | 40,5 | 103,6 | 87,5 |
| Bekobod | 40,2 | 102,4 | 100,0 |
| Ohangaron | 10,3 | 103,0 | 99,4 |
| Chirchiq | 32,7 | 102,0 | 100,0 |
| Yangiyo‘l | 5,1 | 102,8 | 99,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 241,9 | 103,4 | 99,9 |
| Ohangaron | 198,3 | 102,8 | 94,8 |
| Bekobod | 282,9 | 100,8 | 99,2 |
| Bo‘stonliq | 275,4 | 105,4 | 93,6 |
| Bo‘ka | 243,3 | 103,4 | 99,6 |
| Quyi Chirchiq | 177,9 | 101,5 | 89,4 |
| Zangiota | 399,5 | 101,5 | 91,0 |
| Yuqori Chirchiq | 217,7 | 100,6 | 95,3 |
| Qibray | 261,3 | 104,4 | 84,3 |
| Parkent | 203,9 | 103,6 | 99,8 |
| Piskent | 140,0 | 103,2 | 81,0 |
| O‘rta Chirchiq | 283,8 | 101,4 | 88,4 |
| Chinoz | 264,4 | 110,6 | 99,9 |
| Yangiyo‘l | 296,5 | 102,6 | 92,5 |
| Toshkent | 258,3 | 109,1 | 99,2 |

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajm,** *mlrd. so‘mda*




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarining (xizmatlari)ning katta hajmi Zangiota tumanida – 439,3 mlrd. so‘mni tashkil etib, hududlar bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni tashkil qildi. Zangiota va O‘rta Chirchiq tumanlarida mos ravishda 439,3 mlrd. so‘m va 320,9 mlrd. so‘m kuzatildi. Eng kam hajmi Yangiyo‘l (5,1 mlrd. so‘m) va Ohangaron (10,4 mlrd. so‘m) shaharlarida qayd etildi.

**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlar (xizmatlar) umumiy hajmida hududlarning ulushi**




Viloyatning qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlari (xizmatlari)ning umumiy hajmida Zangiota tumanining ulushi 10,4 %ni tashkil etib, hududlar boʻyicha yuqori koʻrsatkichni tashkil qildi. Yangiyoʻl (8,1 %), Oʻrta Chirchiq (7,6 %) va Qibray (7,4 %) tumanlari keyingi oʻrinlarni egalladi. Eng kam ulush Nurafshon (0,2 %), Ohangaron (0,2 %) va Yangiyoʻl (0,1 %) shaharlarida qayd etildi.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining o‘sishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 109,4 %ni hamda chorvachilik mahsulotlari 102,3 %ni tashkil qildi.

**Dehqonchilik**. 2022- yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13 960 tonna sabzavot (2021- yilning shu davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil qildi), jumladan dehqon xo‘jaliklarida 10 453 tonna (105,9 %), qishloq xo‘jalik korxonalarida 2 412 tonna (91,8 %), fermer xo‘jaliklarida 1 107 tonna (84,6 %) yig‘ib olindi.

Bundan tashqari, barcha toifadagi xo‘jaliklarda 34,0 tonna kartoshka qazib olindi, 218,0 tonna meva va rezavorlar yetishtirildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Sabzavot**
**(tonna)**




Yetishtirilgan sabzavot ekinlarining yuqori ko‘rsatkichlari Zangiota (3 297,0 tonna), Toshkent (2 881,0 tonna) va Chinoz (2 136,0 tonna) tumanlarida tashkil etgan bo‘lib, past ko‘rsatkichlar Olmaliq (1,1 tonna), Ohangaron (3,0 tonna) va Bekobod (3,2 tonna) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

**Chorvachilik**. 2022- yilning 1- aprel holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,0 %ga (jami 919 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,5 %ga (381,0 ming bosh), qo‘y va echkilar 104,0 %ga (995 ming bosh), otlar 104,5 %ga (55,1 ming bosh), parrandalar 98,3 %ga (14,9 mln. boshga) ko‘paydi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 85,9 %ni, sut ishlab chiqarishda 95,8 %ni, tuxum ishlab chiqarishda 60,4 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida**
**chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Qo‘y va echkilar**
**(ming bosh)**




**Parrandalar**
**(ming bosh)**



Eng ko‘p qo‘y va echkilar Ohangaron (245,9 ming bosh), Bo‘stonliq (151,9 ming bosh) va Parkent (99,2 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkichlar Yangiyo‘l (0,9 ming bosh), Ohangaron (1,7 ming bosh) va Nurafshon (3,4 ming bosh) shaharlariga to‘g‘ri keldi.

Parrandalar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Zangiota (4 043,3 ming bosh), Qibray (2 009,4 ming bosh), Bo‘stonliq (1 549,2 ming bosh) va Piskent (1 323,7 ming bosh) tumanlarida bo‘lsa, aksincha past ko‘rsatkich Yangiyo‘l (4,8 ming bosh) va Nurafshon (6,2 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

**2022- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Bosh* | *O‘sish sur’ati, %da* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **919 499** | **103,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 82 401 | 108,1 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 797 300 | 102,6 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 39 798 | 99,8 |
| **Ulardan sigirlar** | **381 001** | **102,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 26 200 | 106,1 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 342 701 | 102,1 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 12 100 | 108,0 |
| **Qo‘y va echkilar** | **994 904** | **104,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 312 801 | 111,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 641 602 | 100,4 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 40 501 | 112,5 |
| **Otlar** | **55 122** | **104,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 9 867 | 114,4 |

| | *Bosh* | *O‘sish sur’ati, %da* |
|---|---|---|
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 42 962 | 101,9 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2 293 | 115,2 |
| **Parrandalar (ming bosh)** | **14 895,5** | **98,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xo‘jaliklari | 360,1 | 83,5 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari | 8 880,7 | 101,8 |
| qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 5 654,7 | 94,3 |

**Chorva mollari va parrandalar bosh sonida xo‘jaliklar toifalarining ulushi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 86,7 %ni, fermer xo‘jaliklarida esa 9,0 %ni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 89,9 %ni va 6,9 %ni, qo‘y va echkilar 64,5 %ni va 31,4 %ni, otlar 77,9 %ni va 17,9 %ni, parrandalar 59,7 %ni va 2,4 %ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 69,7 ming tonna go‘sht (2020- yilning mos davriga nisbatan 1,1 %ga ko‘p), 159,0 ming tonna sut (1,1 %ga ko‘p), 223 mln. dona tuxum (7,7 %ga kam) ishlab chiqarilgan.

**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**




**shu jumladan: sigirlar (ming bosh)**



Yirik shoxli qoramollar hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori koʻrsatkich Boʻstonliq (86,2 ming bosh), Bekobod (76,8 ming bosh) va Boʻka (73,3 ming bosh) tumanlarida, aksincha past koʻrsatkich Olmaliq (2,3 ming bosh), Yangiyoʻl (2,5 ming bosh) va Ohangaron (4,1 ming bosh) shaharlarida kuzatildi.

Shu jumladan, sigirlar eng yuqori koʻrsatkich Boʻka (40,2 ming bosh) va Yangiyoʻl (33,5 ming bosh) tumanlariga, aksincha past koʻrsatkich Yangiyoʻl (0,3 ming bosh) va Ohangaron (0,4 ming bosh) shaharlariga toʻgʻri keldi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *Miqdori* | *Oʻsish sur'ati, %da* |
|---|---|---|
| **Goʻsht (tirik vaznda), *ming t.*** | **69,7** | **101,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 1,6 | 100,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 58,3 | 101,0 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 9,8 | 102,2 |
| **Sut, *ming t.*** | **159,0** | **101,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 8,3 | 97,4 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 144,0 | 101,5 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 6,7 | 98,4 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **223,3** | **92,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| fermer xoʻjaliklari | 1,9 | 19,2 |
| dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari | 133,0 | 105,5 |
| qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 88,4 | 83,4 |

**Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi**
*(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan % hisobida)*




2022- yil yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish xo‘jaliklar kesimida tahlil qilinganda, go‘sht ishlab chiqarish 89,0 %, sut ishlab chiqarish 90,6 %, tuxum ishlab chiqarish esa 59,6 % ulush qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hisobiga to‘g‘ri keladi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Go‘sht (ming tonna)**




**Sut (ming tonna)**




2022- yil yanvar-mart oylarida go‘sht ishlab chiqarish hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p ishlab chiqargan hududlar Zangiota (6,7 ming tonna), O‘rta chirchiq (6,0 ming tonna) va Yangiyo‘l (5,4 ming tonna) tumanlari bo‘lsa, Yangiyo‘l (0,1 ming tonna), Ohangaron (0,2 ming tonna) va Olmaliq (0,4 ming tonna) shaharlarida esa kam ishlab chiqarilgan.

Bo‘stonliq (15,8 ming tonna), Yuqori Chirchiq (14,0 ming tonna), Bekobod (13,3 ming tonna) va Parkent (11,8 ming tonna) tumanlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlardan o‘rin olgan bo‘lsa, aksincha Olmaliq (0,0 ming tonna) va Bekobod (0,0 ming tonna) shaharlari sut ishlab chiqarish bo‘yicha past ko‘rsatkichlardan o‘rin egalladi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Tuxum (mln. dona)**




Viloyatda tuxum ishlab chiqarish bo‘yicha 2022- yil yanvar-mart oylarida eng yuqori ko‘rsatkich Qibray (49,8 mln. dona), O‘rta Chirchiq (36,7 mln. dona), Zangiota (32,8 mln. dona) va Yuqori Chirchiq (15,8 mln.dona) tumanlarida, aksincha past ko‘rsatkich Bekobod (0,3 mln. dona), Nurafshon (0,4 mln. dona) va Olmaliq (0,5 mln. dona) shaharlarida kuzatildi.

**Fermer xo‘jaliklari**. 2022- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 264,1 mlrd. so‘mni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,7 %ni tashkil qildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 6,7 %ni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

| | *yanvar-mart* | | | | *2021- yanvar-martiga nisbatan % hisobida* |
|---|---|---|---|---|---|
| | *2021- yil* | | *2022- yil* | | |
| | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %* | *tonna* | *ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, %* | |
| Sabzavot | 1 309 | 9,5 | 1 107 | 7,9 | 84,6 |
| Go‘sht, tirik vaznda | 1 602 | 2,3 | 1 605 | 2,3 | 100,2 |
| Sut | 8 490 | 5,4 | 8 269 | 5,2 | 97,4 |
| Tuxum, mln. dona | 9 790,0 | 4,0 | 1 881,0 | 0,8 | 19,2 |

2022- yilning 1- aprel holatiga viloyat bo‘yicha faoliyat ko‘ratayotgan fermer xo‘jaliklarida jami 82,4 ming bosh (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,1 %) yirik shoxli qoramollar, shu jumladan, 26,2 ming bosh (106,1 %) sigirlar, 312,8 ming bosh (111,2 %) qo‘y va echkilar, 9,9 ming bosh (114,4 %) otlar, 360,0 ming bosh (83,5 %) parrandalar mavjud.

**Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari**

| | *2022- yil yanvar-mart, mln. so‘m* | *O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %da* | *Umumiy hajmda fermer xo‘jaliklarining ulushi, %da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent viloyati** | **264067,3** | **102,7** | **6,7** |
| *shaharlar:* | | | |
| Nurafshon | 46,5 | 99,8 | 0,2 |
| Olmaliq | | | |
| Angren | 0,4 | 20,0 | 0,0 |
| Bekobod | | | |
| Ohangaron | | | |
| Chirchiq | | | |
| Yangiyo‘l | | | |
| *tumanlar:* | | | |
| Oqqo‘rg‘on | 3411,9 | 89,7 | 1,5 |
| Ohangaron | 8515,2 | 108,2 | 4,5 |
| Bekobod | 5902,2 | 94,6 | 2,1 |
| Bo‘stonliq | 15287,2 | 101,3 | 5,6 |
| Bo‘ka | 4606,7 | 92,9 | 2,0 |
| Quyi Chirchiq | 9523,2 | 85,8 | 5,6 |
| Zangiota | 69287,8 | 120,7 | 16,4 |
| Yuqori Chirchiq | 13635,4 | 104,6 | 6,2 |
| Qibray | 28332,1 | 61,3 | 9,6 |
| Parkent | 10435,5 | 102,0 | 5,4 |
| Piskent | 3894,7 | 99,7 | 2,5 |
| O‘rta Chirchiq | 7764,4 | 103,7 | 2,5 |
| Chinoz | 11341 | 109,0 | 4,8 |
| Yangiyo‘l | 20543,7 | 101,1 | 6,9 |
| Toshkent | 51539,4 | 133,9 | 20,8 |